


Islom KARIMOV

**JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY
INQIROZI, O‘ZBEKISTON
SHAROITIDA UNI BARTARAF
ETISHNING YO‘LLARI VA
CHORALARI**




TOSHKENT — «O‘ZBEKISTON» — 2009

65.9 + 65.9 (20')

66.3(50')

K 25



ISBN 978-9943-01-391-9

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2009.

2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lamiga tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekan, ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq prognozlarida javoblardan ko'ra ko'proq savollarga duch kelishmoqda.

E'tiboringizga havola etilayotgan «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» deb nomlangan ushbu asarning dolzarbligi ham aynan ana shu holatlar bilan izohlanadi. Kitob quyidagi ikki qismdan iborat:

birinchisi — jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar;

ikkinchisi — bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

I. Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi — bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida.

Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan bir qancha omillardan kelib chiqadi. Ya'ni, bu avvalo, ana shu davlatning moliya-valuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi (to'lov imkoniga), ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valuta zaxirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada — mamlakat iqtisodiyotining

barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq.

To'rtinchidan, jahon moliyaviy inqirozidan imkon qadar tez chiqish, uning oqibatlarini yengillashtirish ko'p jihatdan har qaysi davlat doirasida va umuman, dunyo hamjamiyati miqyosida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning qanchalik samaradorligiga, ularning bir-biri bilan uyg'unligiga bog'liq.

2008-yil noyabr oyida Vashingtonda, jahon yalpi mahsulotining 85 foizini ishlab chiqaradigan 20 ta yirik davlat ishtirokida bo'lib o'tgan sammit global moliyaviy inqirozning ko'lami tobora kengayib borayotganini tasdiqladi.

Ushbu sammitda bo'lib o'tgan muhokamalar shuni ko'rsatdiki, bugun jahon moliyaviy inqirozining oldini olish haqida so'z borayotgani yo'q, balki undan qanday qilib chiqish yo'llari izlanmoqda, xolos. Ya'ni, bu masalada vaziyat shu darajaga yetdiki, endi avvalgi marralarga qaytish haqida so'z yuritishga asos yo'q.

Muhokamalarda inqirozni keltirib chiqargan sabablar tahlili bo'yicha sammit ishtirokchilarining yagona yondashuvga ega emasligi, shu bois ushbu global moliyaviy inqirozning jiddiy va uzoq davom etadigan oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan umumiy va samarali dastur ishlab chiqish haqida gapirishga hali erta ekani ayon bo'ldi.

Shu bilan birga, mazkur sammitning bo‘lib o‘tganini, unda jahon moliya inqirozi bilan bog‘liq muammolar va vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinganining o‘zi umid uyg‘otadigan ijobiy hol ekani shubhasiz.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta‘siri, undan ko‘riladigan zararining darajasi va ko‘lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog‘liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog‘liqligini isbotlashga hojat yo‘q, deb o‘ylayman.

O‘zbekistonda qabul qilingan o‘ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o‘z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarni amalga oshirish vazifasini qo‘yar ekanmiz, eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o‘zini o‘zi tartibga soladi, degan o‘ta jo‘n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik.

Ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o‘tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, **«Yangi uy qurmasdan turib, eski-sini buzmay» degan hayotiy tamoyilga tayan-gan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lini tanladik.**

Eng muhimi, parokandalik va boshboshdoqlik ta‘siriga tushib qolmaslik uchun o‘tish davrida

aynan davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini biz o'zimizga aniq belgilab oldik.

Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaat-lari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlar-dan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bun-day yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi.

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtiso-diy, budget, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoq-larining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Ayrim misollarga to'xtalib o'tsam.

Hech kimga sir emaski, bugun keng ko'lamda tarqalib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi-ning asosiy sabablaridan biri — bu banklar lik-vidligi, ya'ni to'lov qobiliyatining zaifligi bilan bog'liq muammoning keskinlashuvi, kredit bozoridagi tanglik, sodda qilib aytganda, pul mablag'larining yetishmasligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda esa birgina tijorat banklari-ning aktivlari miqdori, «Fuqarolarning banklar-dagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'-risida»gi qonunga muvofiq shakllangan zaxiralarni hisobga olgan holda, 13 trillion 360 milliard so'mdan oshadi. Bu aholi va xo'jalik

yurituvchi subyektlarning jalb qilingan depozitlari hajmidan taxminan 2,4 barobar ko'p demakdir.

Bank aktivlari hajmining sezilarli darajada oshganini hisobga olib, bugungi kunda respublikamizda aholining banklardagi barcha depozitlarini davlat tomonidan yuz foiz kafolatlash ta'minlanmoqda.

Shu borada 2006-yilda tashkil etilgan «Mikrokreditbank»ning faoliyati xususida alohida to'xtalish joiz. Mamlakatimiz hududlarida 78 ta filiali va 270 dan ziyod minibanki faoliyat ko'rsatayotgan mazkur bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ini kreditlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2007—2008-yillar davomida ushbu bank aktivlari miqdori 3,5 barobar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash hajmi 4 barobarga oshdi va bu maqsadlarga 150 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi.

Prezident farmoni asosida «Mikrokreditbank» ustav jamg'armasini 72 milliard so'mga oshirish va uning hajmini 150 milliard so'mga yetkazish haqida qaror qabul qilindi.

Yana bir masala — tashqi qarz va uni uzish muammolari bilan bog'liq.

Shuni aytish kerakki, ko'plab davlatlarning tashqi qarz masalasidagi puxta o'ylanmagan siyosati ularning iqtisodiyotini zaif, tashqi omillarga qaram, xatarli vaziyatlar oldida himoyasiz

va nochor ahvolga solib qo'yganini ko'rish, kuzatish qiyin emas.

O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyoti davrida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etish tamoyiliga doimo amal qilib kelmoqda.

Shuni ham qayd etishni istardimki, qarzni o'z vaqtida qaytara olishga qat'iy ishonchimiz va kafolatimiz bo'lmagan paytlarda muayyan loyihalarni kreditlash bo'yicha ayrim takliflardan voz kechgan holatlarimiz ham bo'ldi.

Tijorat banklarimizning tashqi majburiyatlari bo'yicha to'lovlarining holati va hajmi masalasi bo'yicha so'z yuritganda hech qanday xavotirga o'rin yo'q. Bu ham respublikamiz bank tizimi jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalanganini ko'rsatadi.

O'zbekiston o'zining ishonchli va to'lov qobiliyatiga ega hamkor ekanini, mamlakatimizda chet el sarmoyasini jalb etish bo'yicha har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratilganini amalda isbotlamoqda.

2007—2008-yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi.

Umuman, 2009-yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investitsiyalarni hisobga olganda, kapital qo'yilmalarning umumiy

hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining kamida 25 foizini tashkil etadi.

Aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlar ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa elyurtimizning farovonligini yuksaltirish, aholining xarid qobiliyatini oshirishni ko'zda tutadigan eng muhim ustuvor maqsadlarimizga to'la mos keladi.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan **tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi.**

Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim — O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va

eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shu bois global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi.

Shubha yo'q, jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Avvalambor keyingi davr mobaynida mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatining puxta poydevorini, moliya-bank tizimining ishonchli boshqaruv mexanizmlarini o'z vaqtida shakllantirib va mustahkamlab olganimiz bunga kafolat va asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda qabul qilingan farmoni bilan jahon moliya

7
3
inqirozining oqibatlariga qarshi kurash yo'lida bank va moliya tuzilmalariga qo'shimcha yordam berish, iqtisodiyotning real sektori korxonalar va kompaniyalarining faolligini kuchaytirish va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishga solish ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiladigan ta'sirini hisobga olgan holda, qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamlı loyihalar bugun amalga oshirilmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni yengish, hech shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo mas'uliyatimizni tebran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi.

II. Bank tizimini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish — O‘zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo‘lidir

Iqtisodiyotimizning jahon xo‘jalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani haqida gapirib o‘tirishning hech qanday zarurati bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman.

Yana takror aytishga to‘g‘ri keladi — bunday ta‘sir, avvalambor, umuman dunyo bozoridagi talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda eksportga yo‘naltirilgan yetakchi tarmoqlar va ular bilan bog‘liq turdosh korxonalar faoliyatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, butun iqtisodiyotimizning mutanosib va samarali rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, ko‘zda tutilgan loyihalarni amalga oshirish, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish yo‘lida ko‘plab muammolarni tug‘dirmoqda. Muxtasar aytganda, 2008-yil biz uchun, birinchi navbatda mamlakatimiz mehnatkashlari uchun g‘oyat murakkab va og‘ir bo‘ldi.

Lekin, yuzaga kelgan barcha muammo va qi-yinchiliklarga qaramay, xalqimizning fidokorona mehnati va amalga oshirilgan tadbirlar evaziga 2008-yilda iqtisodiyotimizning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishdik.

2008-yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish — 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi — 10,2 foiz, savdo sohasi — 7,2 foizga o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xomashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi.

Davlat budjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profisitga erishildi.

Puxta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini izchil olib borish tufayli inflatsiya ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlari chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foiz darajasida saqlab qolindi.

Shu o'rinda mamlakatimizda mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyo-

satni amalga oshirish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar haqida alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

2008-yilda o'rtacha ish haqi budjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSH dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko'paydi.

2009-yilni oladigan bo'lsak, o'rtacha ish haqi miqdorini budjet sohasida — va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham — 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda. Inflyatsiyaning o'sish ko'rsatkichini 7—9 foiz darajasida saqlab turish mo'ljallanmoqda.

Tashqi bozorda konyunkturaning yomonlashuviga qaramasdan, 2008-yilda tashqi savdo aylanmasi 21,4 foizga oshdi, ayni vaqtda tovarlar va xizmatlar eksporti 28,7 foizga ortdi. Natijada tashqi savdo balansida ijobiy saldo hajmi sezilarli darajada o'sdi. Bu esa ishonchli to'lov balansi va iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilmoqda.


Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2008-yilda umumiy eksport hajmida xomashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi

71 foizdan ziyodni tashkil etdi. Ayni vaqtda O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xomashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003-yildagi 20 foizdan 2008-yilda 12 foizga tushdi.

Ta'kidlash kerakki, tashqi savdo munosabatlari bizning geografik joylashuvimiz, avvalo, rivojlanib borayotgan Osiyo qit'asi bozorlari bilan savdo aylanmasining o'sishi hisobiga sifat jihatidan o'zgarib bormoqda.

Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday holat eksportimizning xomashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda bunday o'zgarish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Nega deganda, bugungi kunda eksport asosan xomashyo yetkazib berishdan iborat bo'lib, dunyo bozoridagi narx-navo o'yinlariga haddan tashqari bog'lanib qolayotgani ayrim mamlakatlarda valuta tushumlarini kamaytiradigan, moliyaviy barqarorlikning yomonlashuviga olib keladigan, iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda.



Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qoʻlga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy oʻzgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida oʻz vaqtida boshlangan, chuqur oʻylangan va uzoq istiqbolga moʻljallangan ishlarimizning natijasidir.

Mamlakatimizda tarkibiy oʻzgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhiti-ning yaratilgani asosiy omil boʻlib kelmoqda. 2008-yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb etildi. Bu 2007-yil bilan taqqoslaganda, 28,3 foizga koʻp boʻlib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investitsiyalar hajmi 23 foizni tashkil etdi.

Oʻzlashtirilgan barcha investitsiyalarning 50 foizga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga yoʻnaltirilganini taʼkidlash darkor.

Keyingi yillarda Oʻzbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror oʻsib borayotgani eʼtiborga sazovordir. 2008-yilda 1 milliard 700 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar oʻzlashtirildi. Bu 2007-yildagiga nisbatan 46 foiz

ko'p demakdir. Eng muhimi, xorijiy investitsiyalarning 74 foizini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil etdi. Jahon inqirozi davom etayotganiga qaramasdan, 2009-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar hajmi 1 milliard 800 million dollarga ko'payadi, buning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlash kerakki, o'zlashtirilgan barcha investitsiyalarning qariyb 54 foizini korxonalar va aholi mablag'lari tashkil etadi. Bu mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha olib borilayotgan soliq siyosati qanchalik to'g'ri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va uni modernizatsiya qilish borasida strategik muhim rol o'ynaydigan loyihalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishda 2006-yilda tashkil etilgan, bugungi kunda 3 milliard 200 million AQSH dollaridan ortiq nizom jamg'armasiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berilmoqda. Yaqin istiqbolda ushbu Fond aktivlarini 5 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda. O'tgan ikki yil mobaynida o'nlab yirik sanoat va infratuzilma inshootlarini moliyalashtirish va hamkorlikda moliya-

lashtirish uchun Fond tomonidan 550 million AQSH dollaridan ziyod miqdorda kreditlar ajratildi.

Mamlakatimiz bo'yicha investitsiya dasturlarini amalga oshirish natijasida qariyb 250 milliard so'mlik asosiy fondga ega bo'lgan jami 423 ta obyekt, jumladan, oziq-ovqat sanoatida 145 ta, qurilish materiallari sanoatida 118 ta, yengil va to'qimachilik sanoatida 65 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida 58 ta, kimyo va neft-kimyo sanoatida 13 ta, farmatsevtika tarmog'ida 8 ta obyekt ishga tushirildi.

2008-yilda ishga tushirilgan va hozirgi kunda qurilayotgan yirik ishlab chiqarish inshootlari qatorida Farg'ona vodiysini elektr energiyasi bilan muntazam ta'minlash imkonini beradigan, uzunligi 165 kilometrlik Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi — «O'zbekiston» yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi barpo etilganini alohida ta'kidlash joiz. Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini «So'g'diyona» kuchlantirish stansiyasi bilan bog'laydigan, G'uzor-Surxon yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari va Toshkent shahri elektr ta'minoti obyektlari loyihalarini amalga oshirish ishlari davom ettirilmoqda. Shuningdek, 2008-yili 2 ming 600 kilometrdan ortiq ichimlik suvi hamda 825 kilometrdan ziyod tabiiy gaz tarmoqlari foydalanishga topshirildi.

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish va foydalanishga topshirish masalalariga ustuvor ahamiyat

berilishi natijasida 113 ming 200 o'quvchiga mo'ljallangan 169 ta kasb-hunar kolleji va 14 ming 700 o'rinli 23 ta akademik litsey qurildi va rekonstruksiya qilindi. Shu bilan birga, 69 ta yangi maktab barpo etildi va 582 ta maktab kapital rekonstruksiya qilindi. Shular qatorida 184 ta bolalar sporti inshooti, 26 ta qishloq vrachlik punkti va 7 million 240 ming kvadrat metr turarjoy binolari va boshqa obyektlar qurildi.

2008-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi-ning samaradorligini yanada oshirish prinsiplarini muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi.

Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga — qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. Yurtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.

Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008-yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 trillion so'm, jumladan, paxta tayyorlashga — 800 milliard so'm, g'alla yetishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009-yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so'm yo'naltiriladi.

Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida sotib olish bo'yicha maxsus tashkil etilgan Fond hisobidan ushbu maqsadlar uchun 2008-yili 43 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgan bo'lsa, 2009-yilda 58 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ana shunday e'tibor va amaliy yordam tufayli 2008-yilda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi 99,1 foizni, g'alla tayyorlashda esa 79,2 foizni tashkil qildi.

Shu bilan birga, o'tgan davr mobaynida o'rtirgan tajribamiz fermerlikni yanada rivojlantirish uchun bir qator juda muhim muammolarni, xususan, fermer xo'jaliklarining barqarorligi, eng muhimi, ularning samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni qat'iy talab etmoqda.

Faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jaliklarining ish tajribasi shundan dalolat beradi-

ki, fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda.

Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi, o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi.

Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilikda o'rtacha 37 gektardan 93,7 gektargacha ko'paydi yoki 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bu ko'rsatkich sabzavotchilikda — 10 gektardan 24,7 gektargacha yoki 2,5 barobar, chorvachilikda esa 154 gektardan 164,5 gektargacha ko'paydi.

2008-yilda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi barqaror rivojlandi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10 foizdan 8 foizga, 2009-yildan boshlab esa 7 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar yaratdi.

Natijada so'nggi olti yil mobaynida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1,9 barobar ko'paydi va 2008-yili qariyb 400 mingtani tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi 2008-yili salkam 22 foizga ko'paydi. Bu sanoat tarmog'idagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan ancha ko'pdir. Shuning natijasida kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2007-yildagi 45,5 foizdan 2008-yilda 48,2 foizga ko'tarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 foizdan ko'prog'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda. Biz uchun o'ta dolzarb bo'lgan

bu masalani yechishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikning turli shakllarini keng joriy etish, qishloq joylarda chorvachilikni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

2008-yil mobaynida yurtimizda 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida — 374 mingta, xizmat ko'rsatish va servis sohasida — qariyb 220 mingta, kasanachilik hisobidan esa — 97 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Albatta, ish o'rinlari sonini ko'paytirishda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish va kengaytirish muhim o'rin tutadi. 2008-yili aloqa, axborotlashtirish, moliya, bank, transport xizmati ko'rsatish, maishiy texnika va avtomobillarni ta'mirlash sohalari ancha yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. So'nggi to'rt yil mobaynida yiliga o'rtacha 50 foiz o'sishni ta'minlayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmat ko'rsatish jadal rivojlanayotganini alohida ta'kidlash lozim. Natijada xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2007-yildagi 42,5 foizdan 2008-yilda 45,3 foizga o'sdi.

Ayni paytda qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi yildan-yilga o'sib borayotganiga qaramay, hali-beri past darajada — boryo'g'i 26,8 foiz bo'lib qolayotganiga alohida e'tibor qaratish lozim. Aytish kerakki, aholiga

xizmat ko'rsatish sifati ham talab darajasida emas.

Takror va takror ta'kidlab aytish kerakki, ishlab chiqarish korxonalari bilan kooperatsiya asosida barpo etiladigan kasanachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ish beruvchi korxonalar uchun ham, kasanachilik bilan shug'ullanuvchi aholi uchun ham rag'batlantirishning yaxlit va ta'sirchan tizimi yaratilgan.

Bugungi bosqichda kasanachilik sohasi bandlik va oila budjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbayiga aylanib borayotganini hech kim inkor etolmaydi. Ayni vaqtda kasanachilik fuqarolarni, birinchi navbatda, xotin-qizlar, ayniqsa, ko'p bolali ayollarni, yordamga muhtoj nogironlar va mehnat qobiliyati cheklangan boshqa shaxslarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

2008-yilda kasanachilar tomonidan 34 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar ko'rsatildi. Kasanachilik uchun ish o'rinlari ochgan korxonalar, shu borada o'zlariga berilgan imtiyozlar hisobidan 1 milliard so'mdan ortiq mablag'ni tejashga erishdi.

Aholini, ayniqsa qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish bilan shug'ullanadigan kishilar sonini

ko'paytirishdan iborat. Qayd etish kerakki, bu masalada muayyan ijobiy natijalar qo'lga kiritildi.

Mamlakatimizda qoramollarni aholiga va fermer xo'jaliklariga kimoshdi savdolari orqali sotish, ularga maqsadli va imtiyozli kreditlar berish, veterinariya xizmati ko'rsatishning sifati va hajmini oshirish, ozuqa bilan ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlar yaratilgan. Chorvachilikni rivojlantirish dasturining ijrosi doirasida 2008-yili kimoshdi savdolarida 20 ming 300 bosh qoramol sotildi. 2009-yilda yana 24 ming 600 bosh qoramol sotilishi ko'zda tutilmoqda. Agar 2007-yilda qoramol sotib olish uchun 42,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2008-yilda bu raqam 48 milliard 200 million so'mni tashkil etdi.

Ma'lumki, mamlakatimizda kam ta'minlangan oilalarni bepul sigir ajratish yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2006-yildan 2008-yilga qadar ana shunday oilalar uchun 103 mingdan ziyod qoramol berildi.

Natijada 2009-yilning 1-yanvarigacha shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boquvchi sifatida ro'yxatga olingan fuqarolarning umumiy soni 1 million 100 mingdan ko'proqni tashkil etdi. Shulardan 54 ming kishiga yangi mehnat daftarchasi berildi, 111 ming fuqaroning esa mavjud mehnat daftarchasiga ish staji tegishli tartibda qayd etildi.

Jahon iqtisodiy inqirozi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bank-moliya tizimi rivoji bilan bog'liq masalalarga qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Faqat 2008-yilning o'zida «O'zsanoatqurilish-bank», «Asakabank», «Paxtabank», «G'allabank» kabi yetakchi banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha qator muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashning asosiy kredit markazlaridan biri bo'lgan «Mikrokreditbank»ning nizom jamg'armasini ko'paytirishga oid farmoni qabul qilingani ham shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi.

Natijada mamlakatimiz banklarining jami kapitali, qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobidan, 2007-yil bilan taqqoslaganda 40 foizga ko'paydi. Bu ko'rsatkich 2010-yilgacha bo'lgan davrda ikki barobar oshadi.

Ayni paytda banklarimizning umumiy aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan ikki barobardan ham ko'pdir. Bu esa ushbu mablag'larni ishonchli himoya qilish hamda ularga o'z vaqtida va to'la hajmda xizmat ko'rsatishni kafolatlaydi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan fuqarolarning banklar depo-

zitlaridagi omonatlari, ularning miqdoridan qat'i nazar, davlat tomonidan to'la kafolatlanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi Bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasi talablari asosida belgilangan xalqaro standartlardan qariyb uch barobar ko'p ekanini ta'kidlash joiz.

Hozirgi vaqtda respublikamiz bank tizimining umumiy joriy likvidligi dollar hisobida 1,5 milliard dollardan ortiqdir. Bu tashqi nodavlat qarzlari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan to'lovlar hajmidan 10 barobar ko'pdur. Bu esa bizda likvidlik, ya'ni to'lovlarga qodirlik darajasi bo'yicha muammo yo'q, deb aytish uchun asos beradi.

2008-yilning eng muhim yutuqlaridan biri O'zbekiston bank tizimiga jahonning nufuzli reyting agentliklaridan bo'lgan «Mudis» agentligi tomonidan biryo'la uchta yo'nalish, ya'ni, bank-moliya tizimining barqarorligi, milliy valutada uzoq muddatli depozit reytingi va xorijiy valutada uzoq muddatli depozit reytingi yo'nalishlari bo'yicha «barqaror» reyting darajasi berilgani bo'ldi. Mazkur agentlik hisobotida ta'kidlanganidek, «Bank tizimi uchun ijobiy baho banklarni nazorat qilish muhiti mustahkamligini, bank tizimining potensial o'sishini, moliya tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar va milliy iqtisodiyotning o'sishini aks ettiradi».

Shular qatorida «Mudis» agentligi ikkita bankimiz — Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki

va «G'allabank»ning kredit berish qobiliyati bo'yicha reytingini ijobiy baholadi. Yana bir tanilgan xalqaro reyting agentligi — «Fitch» esa mamlakatimizning «Paxtabank», «Hamkorbank», «O'zsanoatqurilishbank» va «Asakabank» kabi banklariga «barqaror» reytingini berdi.

Shu o'rinda 2009-yilning 1-yanvarigacha O'zbekistonning jami tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 13,3 foizini tashkil etishini va bu ko'rsatkich, xalqaro mezonlar bo'yicha, «Har jihatdan maqbul holat» deb hisoblanishini ta'kidlash joiz.

Hozirgi mavjud sharoitda 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning eng ustuvor vazifalarini belgilab olishda jahon iqtisodiy inqirozining ta'siri va oqibatlarini yetarlicha to'liq hisobga olish juda muhim. Dunyoning nufuzli ekspertlari tomonidan bildirilayotgan fikrlarga ko'ra, bu inqiroz 2009-yilda va 2010-yilda ham davom etishi va ehtimol yanada chuqurlashishi kutilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, o'z-o'zidan ayonki, **mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009—2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.**

Biz istiqlolning dastlabki yillarida qabul qilgan, mashhur besh tamoyilga asoslangan ijtimoiy

yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli yildan-yilga ilgarilab borganimiz sari o'zini amalda oqlab, naqadar to'g'ri va puxta ekanini isbotlamoqda, deb aytish uchun bugun barcha asoslarimiz bor.

Birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar ayniqsa dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz sharoitida o'zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Shuni takror aytish joizki, integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning uzviy bir qismi sifatida O'zbekiston jahon iqtisodiy inqirozining tobora kuchayib borayotgan salbiy oqibatlarini his etayotgani va bundan keyin ham

his etishini biz o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Shundan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiyotimizdagi real ahvol va sharoitlarni hisobga olib, 2008-yilning ikkinchi yarmidayoq Inqirozga qarshi choralar dasturini ishlab chiqishga kirishgan edik.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha Inqirozga qarshi choralar dasturi tasdiqlanib, tarmoqlar va hududlar bo'yicha aniq ijrochilarga yetkazildi. Dastur ijrosini qat'iy nazorat qilishni ta'minlash maqsadida hukumat komissiyasi va joylarda hududiy guruhlar tashkil etildi.

Muxtasar aytganda, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish boshlab yuborildi va 2009-yilning yanvar oyi yakunlari bu dastur ijrosi o'zining dastlabki, ammo ishonchli natijalarini berayotganini ko'rsatmoqda.

Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlari — belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Birinchidan — korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliy lashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

Bu o'rinda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchidan — joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish, xususan:

— aylanma mablag'larini to'ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq bo'lmagan stavkalarida 12 oygacha bo'lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

— tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni budjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan — qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno — ozod qilish muddatini 2012-yilgacha uzaytirish;

— banklar kreditlari bo'yicha to'lov muddati o'tgan va joriy qarzlari miqdorini qayta ko'rib chiqish, budjetga to'lanadigan to'lovlarning pe-

nyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferensiyalar berish.

Uchinchidan — qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish. Shu maqsadda 2008-yili xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma'qullanganini qayd etish lozim.

Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2009-yilda barcha turdagi energiya manbalari va kommunal xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha narxlarning ko'tarilishini cheklash, ya'ni ularni 6—8 foizdan oshirmaslik mexanizmi ishlab chiqilgan. Ayni vaqtda bu sohalarning ishlab chiqarish rentabelligini so'zsiz ta'minlashi kerak.

To'rtinchidan — elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish. Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada ku-

chaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko'p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejimli foydalana olishimizga bog'liqdir.

Beshinchidan — jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturini kengaytirish katta o'rin tutadi. Ushbu dastur doirasidagi loyihalar hajmini 3—4 barobar ko'paytirish mo'ljallanmoqda.

Oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalarini uchun keng ko'lamli rag'batlantirish tizimi nazarda tutilgan. Jumladan, ular uchun 2012-yilning 1-yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda:

— go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun bo'shagan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga qisqartirish;

— tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxo-

nalarni foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirma va kichik korxonalarni yagona soliq to'lovidan ozod qilish.

Hech shubhasiz, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda iqtisodiyotimizdagi har qaysi subyektning imkon qadar ko'proq manfaatdor bo'lishini, ushbu dastur ijrosi ularning har biri uchun eng muhim ishga aylanishini ta'minlash maqsadida qo'shimcha rag'batlantirish choralari izlab topish katta ahamiyat kasb etadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturining mazmun-mohiyati va asosiy vazifalariga baho berish asnosida, g'oyat muhim, prinsipial ahamiyatga molik bir masalaga diqqatni qaratish o'rinlidir.

Bu o'rinda gap jahon iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etish, bank-moliya tizimini mustahkamlash, real iqtisodiyot korxonalariga yordam ko'rsatish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ijtimoiy himoya qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishga e'tibor qaratish bilan birga, biz ertangi kunimizni, kelajagimizni aslo unutmasligimiz zarurligi haqida bormoqda.

Boshqacha aytganda, biz hozirdanoq taraqqiyotimizning inqirozdan keyingi davri haqida chuqur o'ylashimiz, bu borada uzoq muddatga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish haqida bosh qotirishimiz kerak. Bu dastur iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini moder-

nizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalarni o'zida mujassam etishi darkor.

Mana shu o'ta muhim masalani, aytish mumkinki, hal qiluvchi strategik vazifani e'tiborimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Tabiiy savol tug'iladi — buning uchun bizda zarur imkoniyatlarimiz bormi, bunday loyihalarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda qanday salohiyat yaratilgan?

Ta'kidlash joizki, ana shunday keng ko'lamli dasturni amalga oshirish uchun biz so'nggi yillarda jiddiy tayyorgarlik ko'rib kelmoqdamiz. Jahon iqtisodiy inqirozi esa, mening nazarimda, bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki bermoqda, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilmoqda. Shu borada, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy qiymati 24 milliard AQSH dollaridan ziyod bo'lgan qariyb 300 ta investitsiya loyihasi ustida ishla-

moqdamiz. Jumladan, bunda yangi qurilish loyihalari — 18,5 milliard dollarni, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha loyihalar esa taxminan 6 milliard dollarni tashkil qiladi. Dasturga kiritilishi mo'ljallanayotgan bu loyihalar avvalambor yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, yengil va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

Loyihalashtirish va qurilish ishlari boshlanayotgan inshootlarni quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilmoqda: kompaniya va korxonalarining o'z mablag'lari — umumiy hisobda 8,2 milliard dollar, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi kreditlari — 2,5 milliard dollar, xorijiy investitsiya va kreditlar — 13,5 milliard dollar.

Shunisi e'tiborga sazovorki, ushbu loyihalarining bir qismi bo'yicha 2007—2008-yillarda qurilish ishlari boshlab yuborilgan, ba'zilarining qurilishini esa 2009-yilda boshlash ko'zda tutilmoqda.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur loyihalarning amalga oshirilishi innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish hisobidan yiliga 10,4 milliard dollarlik

qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarish, yillik eksportni 6,5 milliard dollarga ko‘paytirish, yalpi ichki mahsulot hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz — har bir loyihani qisqa muddatlarda barcha manfaatdor tuzilmalar, birinchi navbatda, xorijiy investorlar bilan birgalikda batafsil ko‘rib chiqish, ular bo‘yicha kelishuvlarni oxiriga yetkazish va 2009—2014-yillarga belgilangan ushbu strategik muhim dasturning qabul qilinishini tezlashtirishdir.

Yuqorida zikr etilgan vazifalarni inobatga olgan holda, **2009-yilgi iqtisodiy dasturimizning ikkinchi eng muhim ustuvor yo‘nalishi — boshlangan tarkibiy o‘zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirishdir.**

Ma‘lumki, 2000-yilda biz bu boradagi islohot va yangilanishlar yo‘nalishini aniq belgilab olgan edik. Imkoniyatdan foydalanib, yana bir bor takrorlamoqchiman — bu yo‘nalish bugun ham o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmagan, keyingi yillarda ham yo‘qotmaydi. Nega deganda, biz iqtisodiyotimiz va mamlakatimizning jahon maydonidagi raqobatdoshligini aynan ana shu o‘ta muhim, o‘zak vazifani bajarish orqaligina ta‘minlay olamiz. Barchamiz uchun bu haqiqat ayon bo‘lishi shart.

Buning ustiga, qanchalik g‘ayritabiiy tuyulmasin, jahon iqtisodiy inqirozi ishlab chiqarishni

muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zaruratini kun tartibiga yanada o'tkir qilib qo'yimoqda va buning uchun bor kuch-imkoniyatimiz va resurslarimizni safarbar etishni talab qilmoqda.

Faqat bitta misol. Bugun Toshkent, Navoiy va Tollimarjondagi uchta issiqlik elektr stansiyasida mavjud bo'lgan tejamkorligi past gaz qurilmalari o'rniga zamonaviy bug'-gaz qurilmalarini barpo etish loyihalari ustida ish olib borilmoqda. Albatta, bu loyihalarni amalga oshirish uchun kattagina investitsiya kerak bo'ladi.

Lekin issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda energiya manbalaridan foydalanish hajmini jahon standartlari darajasida qisqartirishga erishadigan bo'lsak, bundan keladigan samara sarf qilingan xarajatlarni har jihatdan to'la qoplaydi. Shuning uchun ham ushbu loyihalar ijrosini jadallashtirish ustida qattiq ishlash zarur.

Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish — bu har bir korxonada rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak.

Mahalliy organlar va tarmoq tuzilmalari rahbarlarining joylarda aholi bandligini ta'minlash bahonasida, nima qilib bo'lsa ham, hech kimga kerak bo'lmagan, omborlarda taxlanib yota-

digan sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish uchun urinishlariga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday korxonalar soni bugungi kunda 200 tadan oshadi.

Ajablanarli tomoni shundaki, bunday korxonalarining aksariyati yengil va oziq-ovqat sanoati sohasida saqlanib qolmoqda. Holbuki, bu sohalarda tez o'zgaruvchan bozor talabi texnika va texnologiyani uzog'i bilan 5—7 yilda, rivojlangan mamlakatlarda esa bundan ham qisqa muddatlarda o'zgartirishni talab etadi.

Bunday vaziyatni mazkur korxonalarni bankrot deb e'lon qilish yo'li bilan tubdan o'zgartirish darkor.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa — qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'рни va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

2009-yili tasdiqlangan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturida bu hujjat-

ning mazmun-mohiyati, eng muhim yoʻnalishlari, konkret parametrlari va moliyaviy manbalari aniq belgilab qoʻyilganini hisobga oladigan boʻlsak, bugun bu masalalarga batafsil toʻxtalib oʻtishning zarurati boʻlmasa kerak.

Lekin bu ustuvor yoʻnalish va uni amalga oshirish dasturi nafaqat 2009-yil, balki oʻrta muddatli istiqbol uchun belgilab olinganini alohida taʼkidlash oʻrinlidir.

Qishloqlarimiz qiyofasini, qishloqda hayot sifatini, ishlab chiqarish munosabatlarining mazmun-mohiyatini oʻzgartirishga, agrosanoat majmuyida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirishga, oxir-oqibatda qishloq aholisining ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasini, ongi va fuqarolik masʼuliyatini oshirishga qaratilgan, biz uchun oʻta dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan ushbu davlat dasturini bajarishga kirishar ekanmiz, 2009-yildagi bosh vazifamiz uni amalga oshirish boʻyicha istiqboldagi barcha ishlarni mustahkam tashkiliy asosga qoʻyishdan iboratdir.

Dasturning prinsipial ahamiyatga ega boʻlgan quyidagi yoʻnalishlariga yana bir bor eʼtibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, mazkur dastur ijrosi bilan bogʻliq qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish va mustahkamlash, yangi qonunlar qabul qilish, tegishli qonun hujjatlariga, Yer kodeksiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish zarur. Qishloqda ijtimoiy va ishlab

chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanishni tartibga solish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, dasturda belgilangan vazifalar orasida qishloqlarimizda hayot sifatini tubdan yuksaltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish prinsipial muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Buning uchun qishloq aholi punktlarini me'moriy jihatdan loyihalashtirish va qurish ishlarini tashkil etish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Hududlarning me'moriy-loyihaviy qurilishi bo'yicha bosh planlari ishlab chiqilishini ta'minlash, mintaqalarning iqlimi, demografik holati va boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda, qishloq uylari va ijtimoiy inshootlarning unifikatsiya qilingan namunaviy loyihalarini tayyorlash darkor.

Bu vazifalarni bajarish uchun maxsus «Qishloq-qurilish-loyiha» loyiha-tadqiqot instituti tashkil etildi. Ushbu muassasaning to'laqonli faoliyat boshlashini tezlashtirish, uni yuqori malakali kadrlar bilan mustahkamlash va ularning oldiga aniq va ravshan vazifalar qo'yish kerakki, 2009-yilning o'zidayoq biz yangi arxitektura bosh planlari va namunaviy loyihalar bo'yicha ishlash imkoniyatiga ega bo'lishimiz lozim.

Tabiiyki, yangi qurilishlarni zamonaviy qurilish materiallari va konstruksiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qishloq joylarda barpo etiladigan obyektlarni qurishda yig'ma, kompozitsion va kichik blokli konstruksiyalarni qo'llagan holda, industrial va yig'ma texnologiyalarni keng joriy etish darkor.

Biz qishloqda nafaqat obod aholi maskanlari va zamonaviy uylarga, balki ravon yo'llar, uzluksiz energiya ta'minoti, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimiga, rivojlangan ijtimoiy obyektlar tarmog'iga — bu qishloq vrachlik punktlari, maktablar bo'ladimi, bolalar sporti inshootlari, telekommunikatsiya va pochta aloqasi bo'ladimi, xizmat ko'rsatish, savdo shoxobchalari bo'ladimi — ana shunday va boshqa tuzilmalarga ega bo'lishimiz kerak.

Qishloq joylardagi mavjud infratuzilmani yana bir bor tanqidiy baholab, uni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha mablag' va imkoniyatlar topish zarur. Bu qishloqlarda aholini, ayniqsa, yoshlarning bandligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanini unutmashimiz darkor.

Belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qishloq qurilishi bo'yicha hududiy bo'limlarga ega ixtisoslashgan bank tashkil etish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, dasturning asosiy vazifasi — qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilish-

ni jadal rivojlantirish, meva-sabzavot va chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalarini tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat.

Bu borada vazifa keng miqyosda qo'yilmoqda — ya'ni, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobidan qishloqda ixcham texnologiyalar bilan jihozlangan yangi, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini shakllantirish va ularning keng ko'lamda faoliyat yuritishi uchun har tomonlama mustahkam xomashyo bazasini tashkil etish zarur. Bunday ishlab chiqarish quvvatlari har bir viloyat, tuman va qishloqda barpo etilishi darkor. Bu nafaqat ishlab chiqarishning yangi hajmlari va yalpi ichki mahsulotni oshirish, avvalo oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini berishini aniq-ravshan tushunib olishimiz zarur. Chunki oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lib, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishiga shubha yo'q.

Eng muhimi, qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali biz avvalambor ish o'rinlariga talab doimo katta bo'lgan qishloqlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal etish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

To'rtinchidan, 2008—2012-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlar

tizimining izchil amalga oshirilishiga — ya'ni, ekin maydonlarining meliorativ ahvolini yaxshilash, faoliyat ko'rsatayotgan irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta'minlash, ixtisoslashgan suv xo'jaligi, qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy texnika bilan jihozlash masalalariga alohida e'tibor qaratish darkor.

2009-yilda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili sifatida yanada jadal rivojlantirish — ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Bizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizda kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qanday katta ahamiyat berilayotganini yana bir bor takrorlashning hojati yo'q, deb o'ylayman. Faqat e'tiboringizni shunga qaratmoqchimanki, kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor konyunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi.

2009-yilda kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash vazifasi har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kichik biznes yangi-yangi ish o'rinlarini yaratib, bizning sha-

roitimizda ish bilan band aholi daromadining 70 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda.

Shu sababli Inqirozga qarshi choralar dasturida kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu choratadbirlar soliq va kredit imtiyozlari bilan bir qatorda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay biznes muhitini yaratish maqsadida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ham o'z ichiga oladi.

Jumladan, yangi tashkil etilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Imtiyozli kredit jamg'armasining resurs bazasini ikki barobar oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati uzaytirildi, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarning eng uzoq muddati 12 oydan 18 oyga oshirildi.

2009-yilning 1-yanvaridan sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lov stavkasi 8 foizdan 7 foizga kamaytirildi, moliyaviy, maishiy va boshqa xizmatlar ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovidan 3 yil muddatga ozod etildi. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar, nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlarni oladigan dividendlarining investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo'naltiriladigan qismi 5 yil muddatga soliqdan ozod etildi. Shuningdek, Inqirozga qarshi choralar

dasturida 2009-yilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlar sonini kamida yana 30 foizga kamaytirish ko‘zda tutilgan.

Ayniqsa, xizmatlar ko‘rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidlash joiz.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa, yoshlar bandligining, qishloqda hayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish zarur.

Bu boradagi eng asosiy vazifa vaziyatga tadbirkor nuqtayi nazaridan qarash, ya’ni unga o‘z ishini rivojlantirish uchun nima to‘sqinlik qilayotgani va davlat tomonidan qanday yordam kerakligini aniqlash lozim. Xususiyl sektorga qishloq joylarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga ham alohida ahamiyat berish darkor.

Navbatdagi eng ustuvor vazifa — bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat.

G‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu ustuvor vazifaga alohida e’tibor qaratish zarur. Buning bir qancha sabablari bor.

Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xomashyo resurslarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi, avvalambor, avtomobil va temiryo'llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va omilidir. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholini toza ichimlik suvi, energiya bilan ta'minlash, ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, infratuzilmani rivojlantirish ko'p mehnat talab qiladigan keng ko'lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta'minlash, shu asosda iqtisodiyotni izchil va barqaror yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «2009-yilda ishlab chiqarish va ijtimoiy infra-

tuzilmani yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» maxsus dastur qabul qilindi va uning bajarilishi qat’iy nazoratga olindi.

Transport infratuzilmasini, birinchi navbatda avtomobil va temiryo‘llarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2007—2010-yillarda umumiy foydalanishda bo‘lgan avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi bugungi kunda respublikamizning barcha mintaqalari o‘rtasida yil davomida ishonchli transport aloqasini ta‘minlamoqda. Shuningdek, Dastur doirasidagi ishlar qo‘shni mamlakatlar chegaralaridan o‘tmasdan, yuklarni manzilga uzluksiz yetkazish, yo‘lovchilar tashish uchun sharoit yaratmoqda, hududimiz orqali o‘tadigan yuklar tranzitini sezilarli darajada ko‘paytirishga xizmat qilmoqda.

2009-yilda yanada ishonchli transport xizmati ko‘rsatish uchun qabul qilingan qo‘shimcha chora-tadbirlar bilan bir qatorda xalqaro ahamiyatga molik umumiy foydalanishda bo‘lgan 400 kilometr dan ortiq avtomobil yo‘lini modernizatsiya qilish ko‘zda tutilmoqda. Jumladan, Beynov — Buxoro — Samarqand — Toshkent — Andijon yo‘nalishi bo‘yicha 4 qatorli xalqaro avtomobil yo‘lini, shuningdek, Buxoro — Olot va Samarqand — G‘uzor yo‘llarining strategik uchastkalarini qurish mo‘ljallanmoqda. Shu bilan birga, mahalliy budjetlar va Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mahalliy ahamiyatga molik yo‘llarni rekonstruksiya qilish

va kapital ta'mirlash ko'lamini kengaytirish vazifasi qo'yilmoqda.

Temiryo'l tarmoqlarini qurishni davom ettirish ham biz uchun katta ahamiyat kasb etadi. 2009-yilda yangi Toshguzar — Boysun — Qumqo'rg'on temiryo'l liniyasida obodonlashtirish ishlarini nihoyasiga yetkazish zarur. Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodining qayta ishlash kompleksiga olib boradigan yangi temiryo'l tarmog'ini barpo etish, Jizzax — Yangiyer yo'nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan ikki yo'lli liniya va Yangiyer — Farhod yo'nalishi bo'yicha elektrlashtirilgan bir yo'lli liniya qurilishi yuzasidan ko'zda tutilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial-iqtisodiy zonani tashkil etish, shuningdek, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aerodromni xalqaro operator — Koreyaning «Korean Eyr» kompaniyasi boshqaruviga berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi tufayli oldimizda katta istiqbollar ochiladi. Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan qit'alararo transport-ekspeditsiya uzeli sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirishni tubdan yaxshilash, shuning hisobidan qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish masalalari bizning rejalarimizda alohida o‘rin egallaydi.

Ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar doirasida 2009-yilda uzunligi 2 ming kilometrdan ortiq ichimlik suvi va qariyb 700 kilometrlik tabiiy gaz tarmoqlarini ishga tushirish, chekka tumanlarni suyultirilgan gaz bilan ta‘minlashni tubdan yaxshilash belgilangan.

Uy-joylarni kapital ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo‘yicha pudrat ishlari ko‘lamini kengaytirish, aholining o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida shahar va tumanlarda turarjoy fondi obyektlarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va ularning dizayni bo‘yicha ishlarni tugal holda, ya‘ni kaliti bilan topshirish sharti asosida faoliyat olib boradigan ixtisoslashgan xususiy ta‘mirlash-qurilish tashkilotlarini tuzish nazarda tutilgan.

Bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bo‘sh mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag‘batlantirish ishlari ham 2009-yilda ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi doimo e‘tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda va bu o‘zining ijobiy natijalarini

bermoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish kerak. Nega deganda, aynan banklar, ta'bir joiz bo'lsa, butun iqtisodiyotimizni oziqlantirib turadigan qon tomirlari hisoblanadi, mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan ularning samarali faoliyatiga bog'liq.

Birinchi navbatda banklar, ularning muassislari kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha boshlangan ishlarni oxiriga yetkazishi, o'z nizom jamg'armasi miqdorini belgilangan ko'rsatkichlarga olib chiqishi lozim.

Bugungi kunda banklarda omonatlarning ko'payishiga, ularning bank tizimiga jalb etilishiga nimalar to'sqinlik qilayotganini har tomonlama chuqur tahlil qilish va bu borada qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish kerak. Bu o'rinda gap aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini bank sektoriga jalb qilishda ta'sirchan va uzoq muddatli rag'batlantirish omillarini tashkil etish, iqtisodiyotning real sektoriga kredit ajratishni ko'paytirish uchun banklarning imkoniyatini kengaytirish haqida bormoqda.

Banklar zimmasiga investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklangani sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Birinchi navbatda, bu borada investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish va moliyalashni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarining maxsus xizmatlarini mustahkamlash zarur.

Inqirozga qarshi choralar dasturida ko'zda tutilgan tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va xatarlariga munosib qarshi turish, uning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirining oldini olish imkonini beradi.

Ayni paytda bu dastur inqirozdan so'ng O'zbekiston iqtisodiyotining yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorlarida o'zimizning mustahkam o'rnimizni egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish bo'yicha oldimizda turgan ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ishonchli zamin yaratadi.

Islom Abdugʻaniyevich Karimov

**JAHON MOLIVAVIY-IQTISODIY INQIROZI,
OʻZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF
ETISHNING YOʻLLARI VA CHORALARI**

Nashr uchun masʼul *T. Nazarov*
Badiiy muharrir *J. Odilov*
Texnik muharrir *U. Kim*
Musahhih *N. Umarova*
Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Bosishga ruxsat etildi 25.03.2009. Bichimi 84×108¹/₃₂.
«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.
Shartli b.t. 2 94. Nashr. t. 1 90. Nusxasi 5000. (3-завод).
Buyurtma № 09-63.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining
«Oʻzbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100129. Toshkent, Navoiy koʻchasi, 30.

Karimov, Islom Abdug'aniyevich.

K 25 Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/I.A. Karimov. — T.: «O'zbekiston», 2009.—56 b.

BBK 66.3(50')

BBK 65.9-97